



UDK:17: 398.3

*Nasiba ABDULLAEVA,*  
F.f.d, professor v.b  
O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston  
E-mail: [nasiba1969abdullayeva@gmail.com](mailto:nasiba1969abdullayeva@gmail.com)  
ORCID:0000-0001-8095-141X

SAMDU professori, f.f.d A.Samadov taqrizi asosida

### THE MODERN MEANING OF SOCIO-MORAL IDEAS IN THE EPIC "ALPOMISH"

Annotation

The article reveals the role of the folk epic in spiritual culture, the peculiarities of the Alpomysh epic. The spiritual and moral world of the heroes, the struggle of the people for independence, and the high moral ideals of man are analyzed. The modern socio-moral significance of the epic is shown. The spiritual and moral qualities of the characters of the epic about Alpomysh and their social significance are analyzed.

**Keywords:** myth, mythology, Epic of Alpomysh, masculinity, patriotism, ethos, freedom.

### СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫХ ИДЕЙ В ЭПОСЕ "АЛПАМЫШ"

Аннотация

В статье раскрывается роль народного эпоса в духовной культуре, особенности эпоса Алпамыш. Проанализированы духовно-нравственный мир героев, борьба народа за независимость, высокие нравственные идеалы. Показано современное социально-нравственное значение эпоса. Анализируются духовные и нравственные качества персонажей эпоса Алпамыше и их социальная значимость.

**Ключевые слова:** миф, мифология, нравственность, эпос Алпамыш, свобода, мужественность, героизм, патриотизм.

### "ALPOMISH" DOSTONIDAGI IJTIMOYIY- AXLOQIY G'OYALARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Annotasiya

Maqolada xalq dostonlarining ma'naviy madaniyatda tutgan o'rni ko'rsatilgan, "Alpomish" dostonining o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Qahramonlarning ma'naviy-axloqiy olami, xalqning mustaqillik uchun kurashi, yuksak insoniy axloqiy ideallari tahlil qilingan. "Alpomish" dostonidagi qahramonlarning ma'naviy-axloqiy sifatleri va ularning ijtimoiy ahamiyati tahlil etilgan. Yoshlarda mardlik, jasorat, fidoyilik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda dostonning zamonaviy ijtimoiy-axloqiy ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** mifologiya, afsona, axloq, Alpomysh dostoni, erkparvarlik, mardlik, jasorat, qahramonlik.

**Kirish.** Madaniyatning eng qadimgi poydevori mifologiya barcha davrlarda faylasuflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, shoiru yozuvchilarni qiziqtirib kelgan. Ayniqsa, XXI asr falsafiy tafakkurida mifologiyaga qiziqish kuchaydi. Mifologiya falsafa uchun uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun mifologik tasavvurlarning bunyodkor va vayronkorlik g'oyalari ochib berish, mifning zamonaviy jamiyat ijtimoiy-madaniy hayoti ta'sirini tadqiq etish barcha sohalarda dolzarbdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Alpomysh dostoni olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda tahlil qilingan. Tadqiqotchi olimlar miflarning turlari, kelib chiqishi xususida o'z ilmiy qarashlarini bayon etishgan. X.Lobacheva, N.P.Putilov, J.Frezer, N.Y.Bichurin, A.N.Kireyev tomonidan xalq ijodiyoti, xalq dostonlaridagi falsafiy jihatlarni tahlil qilishgan. Shuningdek, Alpomysh dostonining boshqa turkiy xalqlardagi variantlari olim va tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan va bugun ham tadqiq etilib kelinmoqda.

O'zbekistonda mifologiya masalalari va ularning falsafiy jihatlari Sh.Qahharova, N.Shermuxamedova, U.Qoraboev, I.Jabborov, U.Kerimov, T.Djul'matov, O.Nishonova, X.Toshev, M.Xidirov, M.Usmonovlar tomonidan o'rganilgan. V.Jirmunskiy, T.Zarifov, T.Mirzayev, B.Sarimakov, O.Madayev, M.Rahmonova, Djul'matov, M.

Rizoyeva, J.Eshonqul kabi adabiyotshunos olimlar o'zbek dostonchiligi, "Alpomish" dostoniga doir tadqiqotlar olib borishgan. Ammo, "Alpomish" dostonidagi ijtimoiy-axloqiy qarashlar yetarlicha falsafiy tahlil etilmagan. Ushbu maqolada atoqli xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan «Alpomish» dostonining ijtimoiy-axloqiy ahamiyatini ochib berishga e'tibor qaratiladi.

Xalq ijodini o'rganish bu xalqning turmush tarzi, urf-odat, an'analari, tarixi, buguni va kelajagi, tafakkur tarzi hamda ruhiyatini o'rganish demakdir. Unda millatning o'zini bilish, anglash, namoyon etish xislatlari, urinishlari, xalqning ming yillik hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan bo'lib, oddiyroq tilda aytadigan bo'lsak, xalq ijodini o'rganish bu bevosita xalqning o'zini o'rganish demakdir [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur masalani o'rganishda mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Mif va dostonlarda ezgulik va yovuzlik, xudolarning qudrati, g'ayritabiiy hodisalarga oid g'oyalar ilgari surilgan, insoniyatning kelajak haqidagi orzu umidlari o'z aksini topadi. Ma'naviyatimiz xalq ijodiyoti, uning badiiyligi va og'zaki xalq ijodida yashiringan mifologik qatlamlarni qay darajada tushunishimiz va o'zlashtirishimiz bilan belgilanadi. Chunki ular ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi, milliy qadriyatimizning teran namunasi.

“Alpomish” turkiy xalqlar birligining ramzi, umummerosidir, boy va serqirraligi bilan turli yo'nalishdagi tadqiqotchilarni jalb qilib kelgan. Zero, fol'klor-bu xalq tarixining o'z davrining ijtimoiy voqealari bilan bog'liq holda rivojlanib boradigan ma'naviy tarkibiy qismi. Agar tarix jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar zanjirini faktlar orqali ta'kidlasa, xalqning bu voqealarni idrok etishi ularning badiiy aks ettirishi fol'klorda qayta tiklanadi. Ya'ni, fol'klor voqelikni fol'klorning o'zi doirasida shakllangan obrazlar va arxetiplar orqali ko'rib chiqadi. Shunday qilib, tarix fol'klor tomonidan talqin qilinadi. Tarixning har bir davri o'ziga xos fol'klorga ega, fol'klorning tarix bilan o'zaro bog'liqligi olimlar tomonidan inkor etilmaydi.

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk merosi, yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jixatidan gox kengayib, gox torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar xisoblanadi. Zero, ular xalk milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir.

Turkiy xalqlarning qahramonlik dostoni bo'lgan “Alpomish” dostoni, Alpomish va uning jasoratlari haqidagi epik doston bo'lib o'zbek xalqining sevimli va keng tarqalgan epik asarlaridan biridir. Dostonda turkiylar tarixi, tili, hayoti, urf-odatlar, qadriyatlar ravon til va yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Xalq ijodiyotining boy xazinasida u "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon", "Manas" kabi mashhur epik asarlar kabi sharafli o'rinni egallaydi.

Alpomish turkiy xalqlarning ma'naviy merosi bo'lib uning o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, boshqird kabi turli versiyalari mavjud. “Alpomish” dostonining faqat o'zbekcha versiyalarining o'zi qirg'izdan oshadi va har bir variantlari alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Bu epik asar nafaqat o'zbek dostonchiligida, balki jahon xalq og'zaki ijodi tarixida ham o'ziga xos o'rin tutadi, qadimiy tarixiy ildizlarga ega va yuksak badiiy epik ijod namunasi hisoblanadi. Ushbu doston keng va ko'p jihatdan o'rganilgan, biroq, uning jahon folkloridagi o'rni va ahamiyati, badiiy qatlamlari, dostonning tarix, an'ana va marosimlar bilan aloqasi falsafiy, axloqiy-estetik jihatdan yangi izlanishlarni talab qiladi.

Alpomish” dostonining eng keng versiyasi o'zbek baxshisi Fozil Yo'ldosh og'li tomonidan yozilgan. Kompozision jihatdan Doston 2 qismga bo'lingan: 1) Alpomishning Barchin uchun qalmaq alplari raqobati, Alpomish va Barchin taqdiri; 2) Alpomishning Qalmaq hukmdori Toychaxonga qarshi yurishi, uning yetti yillik qamoqda qolishi va qahramonning vataniga g'alaba bilan qaytishi. Dostonning asosiy g'oyasi-xalqning mustaqillik uchun kurashi, yuksak insoniy axloqiy ideallar, adolatli va tinch hayot o'rnatish. Qahramonlik eposini hayotni badiiy bilish shakli sifatida o'rganish odamlarning ijtimoiy-badiiy, estetik tafakkuri, psixologiyasi, dunyoqarashi va o'zini anglashining o'ziga xosligini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Dostonda tasvirlangan voqealar uning ijodkorlari bo'lgan halqning ijtimoiy va ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, Vatanni himoya qilish uchun kurash va fidoyilik fonida sodir bo'lgan. Doston qahramonlarining ma'naviy shakllanishi va takomillashuvi barcha uchun o'ziga xos ma'naviy takomillashtirish maktabi bo'lib kelgan, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

“Alpomish” dostonidagi sevgi, muhabbat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan uyg'unlashib ketgan. Bu asardagi ijtimoiy-axloqiy g'oyalar bugun ham dolzarb va yoshlar axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonda jasorat, vatanparvarlik, xalq birligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi, qahramonlik, xalqning tinchligi va farovonligi,

o'z mamlakatining ozodligi va mustaqilligi uchun kurash g'oyasi yorqin aks etgan.

Dostonda qahramonning mo'jizaviy tug'ilishi kabi syujetdagi ilohiy elementlar bilan xalq tarixining yorqin va ma'rifiy sahifalari aks ettirilgan. Uzoq tarixiy taraqqiyotning ko'p bosqichlarini bosib o'tgan o'zbek xalq eposi xalq tarixini o'ziga xos tarzda - epik poetikada aks ettirgan. Eposda tasvirlangan xalq tarixining mohiyati, ularning umidlari va intilishlariga e'tibor berish orqali unga xos bo'lgan tarixiylik tamoyillari aniqlanadi.

Dostondagi obrazlar orqali axloqiy fazilat va illatlar ko'rsatiladi. Alpomishga xos mardlik, jasorat, sadoqat ulug'lanadi shu bilan birga Barchindagi sadoqat, shijoat, jasurlik orqali turkiy ayollarga xos bo'lgan fazilatlar bayon etiladi.

Surxayilning o'g'illari Boysaridan qizini so'rab kelganda Barchin otasiga

Men bilaman juda gangigan boshing,

Xafa bo'lma, jonim otam, darvishim.

Har na deb amr etsang, ani qilayin,

Qaerda amr etsang, borib turayin,

Bul aplarga o'zim javob berayin deya Barchin aplarga shartini qo'yadi[2]. Alpomishdan Qorajon sovchi bo'lib kelganda ham Barchinoy shartini bajarishni talab qiladi bu alplar ham olti oydan buyon kutib o'tiribdi shartni bajarganga tegaman deydi. Kurash qilib to'qson alpni yiqqanga,

Men tegaman nor bilakli polvonga.

Shul so'zimni aytib borgin to'ramga,

Zog' ham bo'lsa qo'na bersin gulshanga,

Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga,

Men tegaman to'rt shartimni qilganga.

Aytib borgin izlab kelgan sultonga,

Otin toblab kira bersin maydonga,

Xabar bergin bari qalmaq dushmanga,

Talab qilsa bari kelsin maydonga,

Hech qaysi ham qolmasin-da armonda[3].

Bu birinchidan Alpomishga ishonchi bo'lsa, ikkinchidan o'zbeklarning bergan so'zini ustidan chiqishi, lavzidan qaytmasligini ko'rsatadi Barchin.

Surxayil kampir obrazi orqali shum, o'z maqsadi yo'lida hech bir hiyla va yovuzlikdan qaytmaydigan, zo'ravon inson namoyon bo'ladi. Qalmaq alplarning enasi Surxayil maston Qalmaqshohning davlatxonasiga kelib Boysindan kelgan boylarning maqsadini bilmoq niyatida bormoqchiligini bayon qiladi. Qalmaqshoh ul boylarning ixtiyorini o'ziga bergan edi. Bu so'zlarni Surxayil mastondan eshitib, borma deb bu kampirga aytolmay, nochor javob berdi. O'g'illarining zo'rligidan hatto Qalmaqshoh ham undan hazar qilar edi deyiladi dostonda. Hatto kampirning shumligini o'z o'g'illari ham bilishadi. Buni Qorajonning onasi o'zbek boylarini oldiga ketyapman deganida aytgan so'zlaridan ham bilish mumkin;

Bir shumlikni, ena, o'ylab yuribsan,

Ko'ngilingga ul shumlikni olmagin,

Borib shu boylarni halak qilmagin,

Qaytgin, ena, kelgan yo'ldan qolmagin.

Horib-charchab, ena, halak bo'lasan,

Borgan yerni besaramjon qilasan,

Yomon bo'lsang, sen imonsiz o'lasan,

Qaytgin, ena, borib nima qilasan.

Surxayil kampir Boysin elining Qalmaqda erkin emasligini Barchinni onasiga quyidagi fikrlari orqali bildirib qo'yadi:

Korajonni kuyov qilib olsana,

Muna elga erkin bo'lib yursana,

Holing bilib yaxshi so'zlab ko'rsana [4]

Surxayilning o'g'li Ko'kaldosh alp ham Boysarini Kelgan boy! - deb chaqiradi, ya'ni kelgindi demoqchi. Ushbu

so'zlar ona vatan inson uchun qanchalik qadrli ekanligini, Boburshoh o'zga yurtida shoh bo'lsada iztirobli satrlar bitganligini eslatadi.

Xullas, Surxayil kampirga Barchinning onasi qizini bermasligini aytgach o'rtada bahslashuv bo'ladi.

Boybichaman kampir ancha o'rlashdi,  
Bir-biriman tura kelib ushlashdi,  
Ikkovi tura kep shunday tirashdi,  
To'qqiz kampir turib oraga tushdi.

Kampirlar bularni ayirib qo'ydi. Mehmonlar o'tirdi. Mehmonlarni bular o'tqizib, qo'lini yuvdirib, dastarxon soldi. U ch tovoqqa oshni suzib mehmonlarning oldiga qo'ydi[5]. Shuncha tortishuvdan keyin ham mehmonlarni izzat ikrom qilib qo'lini yuvdirib osh qo'yishadi oldilariga dostonda o'zbeklarga xos mehmondo'stlik axloqi tamoyili shunday tasvirlanadi.

Turkiy xalqlar dostonlarining mavzulari o'ziga xos bo'lib, ular orasida ma'naviy, ma'rifiy, didaktik – axloqiy mavzudagi dostonlar alohida ajralib turadi. Doston va ertaklarda xalqlarning asriy orzu va intilishlari mujassamlanadi va unda mil liy birlik, ozodlik kabi ezgu g'oyalar oldinga suriladi. Alpomish» dostoni xalq qahramonlik eposining yorqin namunasi bo'lib, o'zida o'zbek xalqining avvallari turkiy qavmlar qatorida shakllanganini, keyinchalik alohida xalq sifatida rivoj topganini ifodalashi bilan qimmatlidir [6].

Alpomish – yurt ozodligi va xalq manfaati uchun kurashuvchi botir-alp sifatida gavdalangan. Qahramonlar o'z

muhabbati, oilasi va elning sha'ni uchun kurashadi. Alpomish barcha qiyinchilik va mashaqqatni faqat o'zi yengib o'tishi uchun Qorajonning yordamini rad etadi va o'z kuchi bilan chuqurdan chiqib alaloqibat Qalmoqshohni yengadi. Asardagi hurlik, ozodlik, vafo, mardlik, jasorat kabi ijtimoiy-axloqiy g'oyalar zamonaviy nuqtai nazardan ham umuminsoniy ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Dostondagi axloqiy g'oyalarni yoshlarga singdirish uchun maktab va oliy o'quv yurtlarida turli zakovat tadbirlarini o'tkazish, dostondagi vatanparvarlikka oid qismlarga bag'ishlangan sahna ko'rinishlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Zero, "Alpomish" dostoni xalqimizning ma'naviy qadriyati sifatida abadiyatga daxldor asardir.

Doston asrlar davomida avlod-ajdodlar, yoshlarning ma'naviyati, madaniyati, axloq-odobi, ulardagi Vatan, millat tuyg'ularini o'stirish, shuningdek do'st-birodarlik, oriyat, mardlik, bahodirlik, pahlavonlik, qat'iyatlilik kabi fazilatlarini shakllantirish va kamolga yetkazishda muhim tarbiya vositasi bo'lib kelmoqda.

«Alpomish» ota-bobolarimiz ijodiy dahosining bebaho badiiy yodgorligi, jahon xalqlari epik ijodiyoti namunalari ichida alohida o'rin tutuvchi, mustaqil rivojlanishimiz davrida millat birligi va ma'naviy uyg'onish, milliy g'urur va o'z-o'zini anglash ramzidir. Shoir Usmon Azim ta'kidlaganidek,

Go'ro'g'lisiz el bo'lmas, axir,  
Alpomishsiz mamlakat yo'qdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni // Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi: M.Zarif ov/. - T.: «Sharq», 1998. - 4006.
2. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1947. –520 с;
3. Лобачева Н.П. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана. Домусулманская верования и обряды в Средней Азии.-М.: Наука. 1975.-С.302-320.
4. Mirzayev T. Alpomish dostonining o'zbek variantlari. Toshkent 1968.
5. Alpomish xalq qahramonlik eposi. T.1999
6. Omonulla Madaev Alpomishni o'qish <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/1r-9/>
7. Jabbor Eshonqul.Epik an'ana va Alpomish dostoni [uz/materials/articles-books/415-article-1](http://uz/materials/articles-books/415-article-1)